

TAKE A LOOK AT MY "LAST DAYS"**TECHMIND-2021****Ravshanbekova Gulmira**

She is a 9th grade student at the Agahi School of Creativity

**Anatation**

This article deals with the first novel of Uzbek literature, the historical novel "Days gone by". It shows the time of khans even shortly but this novel wants to teach people about the sad truth, it shows how the true love endured in spite of hard life, it is said that the novel can still be read hand-in-hand even today.

Keywords

Works and novels, historical novels, Abdullah Qadiri, "durri bebaho", S. Hussein, khan's times, description of writers, images of Otabek and Kumush

Reja:

1. Adabiyot-so'z san'ati. Uning bir bo'lagi hisoblangan janrlar.
2. Toshkandning ustida qonliq bulutlar.
3. Taqdir shamoliga duchor bo'lgan so'nmas muhabbat.
4. "O'tkan kunlar" - "durri bebaho" asar.
5. Roman hozirgi kun yoshlariga o'rnak bo'la oladigan tiniq ko'zgudir.

Abdulla Qodiriy iste'dodli, qalbi butun va o'ziga xos ravishdagi shaxs edi... Abdulla Qodiriyning prozasi birinchi navbatda g'oyat hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Rost gap; isboti umrboqiy "O'tkan kunlar".

Oybek

Asar. Adabiyotshunoslikda ma'lum g'oyaviy mazmuni tegishli badiiy shaklda tugal ifodalagan kichik lirik she'rdan boshlab yirik epik polotnoga qadar bo'lgan badiiy ijod mahsuloti. Asar bilan asarning farqi bor. Uni yozish uchun ijodkorlar qanchadan qancha mehnatini sarf etadi. Ammo asar shunday bo'lishi kerakki, uni o'qigan har bir inson o'ziga xulosa chiqara bilmog'i darkordir. Shunday asarlar bor, bitta varog'ini mutolaa qilishimizdan oq uni tezroq o'qib, oxiri qanday yakunlanishi bilan qiziqamiz, o'sha kitob olamiga sayohat qilamiz. Lek, shunday kitoblar borki, uni o'qishimiz bilan oq, oxirini yakunlashni istamay, duch kelgan joyga tashlab ketamiz. Chunki uni o'qigan inson zerikadi, voqealar u uchun tanishdek bo'ladi.

Roman. Nasr usulida yozilib, hayot keng qamrovda ko'rsatiladigan, hajmi jihatdan hikoya, qissa va boshqa janrlardan ajralib turadigan eposning katta janri. Roman janrining dastlabki namunalari Yevropa davlatlarida Uyg'onish davrining oxirlarida (XV-XVII asrlarda) yaratila boshlangan. Valter Skot, Migel de Servantes, Stendal, Balzak, Turgenev, Dostoyevskiy, Lev Tolstoylar bu janrda shuhrat qozonganlar.

Ilk romanlar bundan 2.5 ming yillar oldin yuzaga kelgan va sochma yo'lda qora so'z bilan bitilgan.

Tarixiy romanlar voqea-hodisalari va qahramonlari uzoq hamda yaqin o'tmishdan olib yozilgan, qalamga olingan davr va shaxslar haqida haqiqiy tasavvur beruvchi romandir. O'zbek adabiyotining birinchi romani esa "**O'tkan kunlar**" tarixiy romanidir. Romanning ma'no

mundariyasi keng. Unda xilma-xil ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida eng muhimi-yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasidir.

Abdulla Qodiriy bu asarni 1919-yilda yoza boshlagan. Romandan parchalar 1922-yilda "Inqilob" jurnalida bosilgan. 1925-yili asarning bo'limlari alohida-alohida, so'ng 1926-yilda yaxlit holda kitob bo'lib chiqqan.

Muallif bu asarda "moziga qaytib" ish ko'rgan. "Tariximizning eng kir qora kunlari" go'zal tarzda bayon etilgan. Ushbu roman "1264-hijriy dalv oyining o'n yettinchi, qishki kunlarning biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshitilardir" degan jumla bilan boshlanadi. Adib uni shu qadar go'zal tarzda xalqqa taqdim etganki, uni rus-tuzem davrida ham insonlar uylarida yashirib, qayta-qayta mutolaa qilishgan. Chunki asar badiiyligi, ta'sirchanligi, hayot haqiqatini so'zlovchi asar bo'lgan. Romanni boshida adib o'z ichki-kechinmalarini shunday bayon etadi: **Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydiq, bas, biz har bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz.**

Yozmoqg'a niyatlaganim ushbu "O'tkan kunlar", yangi zamon bir tajriba yana to'g'risi havasdir. Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar. Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keying "xon zamonlari"-dan belguladim".

Abdulla Qodiriy "mavzuni moziydan" ekanligini angladik. Xon zamonlarida aybdor-u aysiz insonlar qanday tuhmatlarga qolib, jazolanganini ham bizga oz bo'lsada ma'lum. Asarda bu voqealar bor-yo'g'i o'n uch yilni o'zi ichiga oladi. Tarix fanining guvohlik berishicha, bu davrda uch muhim o'zgarish kechgan.

Birinchi, Turkistonda mavjud xonliklarning inqirozga yuz tutib, yemirilish davriga to'g'ri keladi. Ikkinchi, chor Rossiyaning O'rta Osiyoga, jumladan, Turkiston o'kasiga "yurishi" boshlanib, mustamlakachilik tizimi va mafkurasi ildiz otgandir. Uchinchi, xar ikkala zulm tufayli yerli xalqning **uyg'onishi-kurash yiliga o'tish** davri bo'ldi. Abdulla Qodiriy esa bu davrga shunday tasvir beradi: "Musulmonqul o'z g'arazi yo'lida orada yo'q nizolarni qo'zg'ab kuyovi Sheralixonni o'ldiradi, guvohsiz Murodxonni shahid qiladi, qo'y kabi yuvvosh Toshkand hokimi Salimsoqbekni o'dirib, o'rniga Azizbekdek zolimni belgiladi va o'zini mingboshi deb e'lon qilib, aqlsiz bir go'dakni (Xudoyorxonni) xon deb e'lon qildi" ("O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon").

Asar yozilishi bilanoq uni tanqid qila boshlashadi. Sotti Husayinning gazetalarda tanqidi bosilib chiqdi. U ko'p marotaba yozuvchini "mantiqsiz"likda aybladi. Hatto, uni gazetalarda ham yoritdi. "O'tkan kunlar" romaniga S. Husayin shunday tanqid qiladi: "Kumush qiz ekan, ota-onasi undan so'ramay, rizolig'ini olmay erga berdi, erdan chiqq'andan so'ng (Otabekdan soxta ajrashg'andan keyin) ikkinchi erga berishda ota-onasi Kumushning rizolig'ini olamiz, deb o'vora bo'lishdilar. Bu mantiqsizlik Abudulla Qodiriy esiga kelmadimi, chunki shu mantiqsizlik ishlamas, ro'monni bog'laydirg'an ip chivalab ketadi" ("Sh.H" 137-son) deb o'tadi. Abdulla Qodiriy mana shunday sinovlarga ham duch keladi. A. Qodiriy ham unga javob tarzida: "Holbuki, bu "mantiqsizliqqa" turmush haqiqatig'a qarab irtikob qiling'andir. Zero, Kumushdan rizoliq so'rash ustida ozg'ina to'xtab "didaktika" iste'mol qilsam ish tamom edi. Ammo men xalq orasida ma'lum va mashhur bu urf ustida "didaktika" yozishni luzumsuz topqan edim"-deydi shoir. Ushbu voqealardan to'laonli yana bir bor voqib bo'lganda shoirning har taralama mukammal shaxs ekanligini anglash mumkundir.

Abdulla Qodiriy ushbu "O'tkan kunlar" romanida kitobxonni bir o'rinda uch ayol bilan tanishtiradi. Bular Oftoboyim, Oyshabibi va To'ybekalardir. Asar bosh qahramonlari bu- Otabek va Kumushdir.

Otabek- "og'ir tabiatlilik, ulug' g'avdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabza urgan yigit" -asarning bosh qahramoni, Kumushning yori, savdogar Yusufbek hojining o'g'li. Asar boshida u yigirma to'rt yoshida ekani bayon etilgan. U deyarli asarning ko'pgina joylarida ishtirok etagan.

Kumush - "quyuq jinggila kiprak"lari ostidan "timqora ko'zlari" boqib turguvchi", to'g'on oydek g'uborsiz oq yuz"lik o'n yeti-o'n sakkiz yoshlaridagi qiz. Mirzakarim qutidorning qizi,

Otabekning ma'shuqasi.Roman oxirida Kumush kundoshi Zaynabning taomga qo'shib bergan zaharidan vafot etadi.

“O'tkan kunlar” romani mana shu obrazlar orqali insonlar qo'lidan-qo'lga o'tib hali-hanuz o'qib kelinmoqda. Romandagi uchlik- oshiq, ma'shuqa va ag'yor, bir qarashda an'anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi.Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqiy kechinmalari,baxti va baxtsizligi juda zo'r mahorat bilan ko'rsatiladi.

Otabek va Kumush qancha sinovlardan birga o'tishdi.Lek, ular hech qachon mag'lub bo'lishmadi.Xuddi, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni singari unda ishq kuylandi.Hayot haqiqati ro'y-rost yoritilib berildi.Bu ham yozuvchining qanchalik mahoratli ekanligining yana bitta isbotidir.Adib umri davomida sanoqli she'r yozgan bo'lsada ular ham bizning qalbimizdan joy olgan:

Agar Farxodning Shirin,
Bo'lsa Majnunlarning Laylosi,
Nasib o'lmish menga gulshan aro
Gullarning “Ra'no”si- degan edi Abdulla Qodiriy.

Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir “durri bebaho”- ishq-muhabbat tuyg'usiga doir inja tafsilotlar kitobxonni hayajonga solidi.Romanda “qo'lansa gaplar uchun yaratilgan odam” dab tasvirlanga **Homid** obrazini ham uchratishimiz mumkin.Hasadgo'y Homid Kumushga Otabek nomidan soxta maktublar ham yozadi.”Dushanba kuni kechasi” esa u Otabek tomonidan sheriklari Sodiq va Mutallar bilan o'ldiriladi.Har narsani bitta yaxshi tomoni bor deyishganidek asarda biz ijobiy obrazlarni ham uchratishimiz mumkin.Ular: Usta Alim, Rahmat, Usta Parfi, Saodat...

“O'tkan kunlar” romani bamisoli ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vazifasidagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy-ma'naviy dunyosi aniq va ravshan tasvirlandi. Abdulla Qodiriy ham roman haqida shunday deydi:”O'tkan kunlar”ni yozar ekanman, doim ko'z o'ngimda o'quvchi va ommamiz turar edi.Men bu kitobim bilan xalqimiz rag'batini biro z bo'lsada ham yangilikka tortay der edim”.

Yuqorida ta'kidlaganimdek hamma ham asar yoza oladi.Ammo insonlar qalbida o'chmas iz qoldirgan,qancha asrlar o'tsada yod etiladigan haqiqiy asar, asardir! Haqiqatdan shuki, alloma, adib Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asari adib va olimlar tomonidan har doim o'rganilgan, o'rganilayotgan va o'rganiladigan romandir.

Muhtaram Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek:”Abdulla Qodiriy asarlari kirib bormagan birorta ham xonadon bo'lmasa kerak.U faqat o'zbeklarning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli adibi, ozodlik va istiqloq kuychisidir”.

Bu asar hozirgi kun yoshlariga tiniq ko'zgudir.U ko'zguning ichida go'yoki “ma'rifatga eltuvchi” cheksiz yo'l bor.U yo'ldan yura oladigan kitobxon ma'rifat yo'lidagi cheksiz xazinaga ega bo'ladi.Undagi dur-u gavharlardan bahramand bo'ladi. Bu xazinalar ichida Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani ham bordir.Zero, kitob bilim manbayi.Ularning yaxshi va yomoni yo'q.Ammo, undan to'g'ri xulosa chiqara olish kitobxonga bevosita bog'liqdir.

Assalom,Abdulla Qodiriydurman,
So'z mulkida daho Qodiriydurman.
Bir bulbuligo'yo Qodiriydurman,
Netay baxti qaro Qodiriydurman.
Men yaratgan mayoq-“O'tkan kunlar”im,
Bir bor varaqlab boq “O'tkan kunlar”im.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirvaliyev.S. “Abdulla Qodiriy kashfiyoti”,-T.-2018.-208 b.
2. Bahodir Karim. “O'tkan kunlar kashfiyoti”,-T.-2019.-152.b
3. Qodiriy,Abdulla. Tanlangan asarlar/A.Qodiriy; nashrga tayyorlovchi X.Qodiriy.-T.:“Sharq“,2019.-864 b.